III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 27 807,7 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 104,1 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 26 827,9 mlrd. so‘mni (104,1 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,6 mlrd. so‘mni (104,5 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari 293,4 mlrd. so‘mni (102,1 foiz), baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari 685,8 mlrd. so‘mni (102,1 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi (mlrd.so‘m)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning o‘sish sur‘atlari



Xususan, yuqori o‘sish sur‘ati Qo‘shko‘pir (117,5 foiz), Xonqa (105,2 foiz) va Gurlan (104,5 foiz) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Xiva sh. (100,1 foiz) va Urganch sh.(100,4 foiz) shaharlarida kuzatildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida hududlar bo‘yicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Urganch tumanida - 11,0 foiz, Qo‘shko‘pir tumanida - 10,9 foiz, Xonqa tumanida - 10,6 foiz, Shovot tumanida -9,9 foiz, Gurlan tumanida -9,7 foiz, Bog‘ot tumanida -9,2 foizni tashkil etdi. Xiva shahri -0,3 foiz, Urganch shahri - 2,3 foiz va Tuproqqal’a tumani- 2,7 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva shahrida (0,3 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida 2023-yilning yanvar- dekabr oylarida 26 160,4 mlrd. so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 104,3 foizni va chorvachilik mahsulotlari 103,7 foizni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon va tomorqa xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2023- yil yanvar - dekabr oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 68,3 foizini (2022- yil yanvar- dekabr oylarida – 67,5 foiz) tashkil qildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 25,6 foizi ishlab chiqarilgan (2022- yil yanvar- dekabr oylarida 27,5 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 6,1 foizi (2022- yil yanvar- dekabr oylarida – 5,0 foiz) ishlab chiqarilgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



2023- yilning yanvar- dekabr oylarida 26 160,4 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 11 697,1 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 44,7 foizi dehqonchilik, 14 463,3 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 55,3 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Tuproqqal’a tumani (54,7 foiz), Yangibozor tumani (52,3 foiz) va Xiva tumanida (52,2 foiz) yuqori ko‘rsatkich qayd etildi. Urganch shahrida bu ko‘rsatkich 4,6 foiz bo‘lib, dehqonchilik mahsulotlari salmog‘ining kamayganligi qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko‘rsatkichlari Urganch shahrida (95,4 foiz), Xiva shahrida (69,9 foizi), Hazorasp tumanida (62,6 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi



Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ulushining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. 2023- yilning yanvar- dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Tuproqqal’a tumanida (36,0 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (97,8 foizi) va Xiva shahrida (91,7 foizi),

qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo‘shko‘pir tumanida (18,2 foizi) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Yangiariq tumanida (16,7 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Tuproqqal’a tumanida (61,5 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (2,2 foizi) va Shovot tumanida (2,3 foizi) qayd etildi.

Dehqonchilik. 2023- yilning yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 11 697,1 mlrd. so‘mni yoki jami yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 44,7 foizini tashkil qildi. 2022- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 104,3 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 5 986,3 mlrd.so‘mni (101,9 foiz), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 4 811,7 mlrd.so‘mni (102,7 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 899,1 mlrd so‘mni (129,0 foiz) tashkil qildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Hosil yig‘imi. 2023- yilning yanvar - dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 323 226 tonna boshoqli don (109,7 foiz), shundan 316 720 tonna bug‘doy (109,6 foiz), 148 074 tonna kartoshka (102,4 foiz), 653 422 tonna sabzavot (102,4 foiz), 166 946 tonna poliz (104,5 foiz), 169 028 tonna meva va rezavorlar (103,5 foiz), 49 879 tonna uzum (102,6 foiz) yetishtirildi.



Chorvachilik. 2023- yilning yanvar - dekabr oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 14 463,3 mlrd so‘mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 103,7 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 697,9 mlrd so‘mni (103,7 foiz), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 13 058,8 mlrd so‘mni (101,3 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 706,6 mlrd so‘mni (184,3 foiz) tashkil qildi.

Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)



2024 - yilning 1 – yanvar holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 100,6 foizni (jami 968,0 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan, sigirlar 100,5 foizni (366,1 ming bosh), qo‘y va echkilar 102,6 foizni (497,2 ming bosh), otlar 100,8 foizni (5,9 ming bosh), parrandalar 107,0 foizni (6977,7 ming bosh) tashkil qildi.

Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo‘jaliklar toifalarining ulushi
2024- yilning 1- yanvar holatiga



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 91,2 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,4 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 77,6 foizni tashkil etdi.

2023- yil yanvar - dekabr oylarida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jaliklar toifalarining ulushi



2024- yil 1- yanvar holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	ming bosh	*o'sish sur'ati, %*
Yirik shoxli qoramol	**968,0**	**100,6**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	76,2	104,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	876,8	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	15,0	112,6
***ulardan:* sigirlar**	**366,1**	**100,5**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	33,4	102,2
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	326,9	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	5,8	114,6
Qo'y va echkilar	**497,2**	**102,6**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	84,2	106,4
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	382,0	101,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	31,0	106,2
Otlar, *bosh*	**5859**	**100,8**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	830	103,5
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	4958	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	71	118,3
Parrandalar	**6977,7**	**107,0**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	1119,9	111,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	3769,8	100,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2088,0	117,7

2023- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	miqdori	*o'sish sur'ati, %*
Go'sht (tirik vaznda), *ming tonna*	**184,9**	**105,8**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	6,7	105,8
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	161,9	100,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	16,3	2,0 m.
Sut, *ming tonna*	**1110,9**	**101,1**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	59,1	105,2
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	1045,2	100,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	6,6	104,3
Tuxum, *mln dona*	**480,2**	**100,3**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	47,3	106,6
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	325,5	105,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	107,4	85,2
Jun, *tonna*	**1235**	**100,9**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	175	101,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	1032	100,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	28	112,0
Qorako'l teri, *dona*	**10771**	**103,0**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	980	118,6
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	9672	101,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	119	180,3

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 6 684,2 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning tegishli davriga nisbatan 102,1 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 25,6 foizni tashkil etdi.

Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)



2024- yilning 1- yanvar holatiga fermer xo‘jaliklarida 76,2 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 33,4 ming bosh sigir, 84,2 ming bosh qo‘y va echki, 830 bosh ot, 1119,9 ming bosh parranda mavjud bo‘lib, 2022 - yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 104,3 foizni, shu jumladan, sigirlar 102,2 foizni, qo‘y va echkilar 106,4 foizni, otlar 103,5 foizni, parrandalar 111,3 foizni tashkil qildi.

2023 - yilning yanvar-dekabr oylarida fermer xo‘jaliklarida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	yanvar-dekabr				*2022- yanvar-dekabr oylariga nisbatan foiz hisobida*
	2022- yil		*2023- yil*		
	tonna	*umumiy hajmidagi ulushi, foiz*	*tonna*	*umumiy hajmidagi ulushi, foiz*	
Jami don	302565	65,5	334056	67,3	110.4
Kartoshka	33834	23,4	35876	24,2	106,0
Sabzavot	117442	18,4	120628	18,5	102,7
Poliz	79995	50,1	84780	50,8	106,0
Meva	55238	33,8	59702	35,3	108,1
Uzum	11543	23,7	12078	24,2	104,6
Go‘sht, tirik vaznda	6335	3,6	6705	3,6	105,8
Sut	56180	5,1	59078	5,3	105,2
Tuxum, *ming dona*	44355	9,3	47296	9,8	106,6
Jun, *tonna*	172	14,1	175	14,2	101,7
Qorako‘l, *dona*	826	7,9	980	9,1	118,6
Asal, *tonna*	240,0	21,4	270,7	23,3	112,8
Baliq, *tonna*	18903,2	62,3	19473,1	63,0	103,0

2024- yil 1- yanvar holatiga hududlar kesimida fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar soni

Shahar va tumanlar nomi	*Fermer xo‘jaliklari*	*Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi yirik tashkilotlar*	*Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar*
Bog‘ot	358	2	65
Gurlan	430	4	171
Qo‘shko‘pir	428	1	41
Urganch	381	5	91
Hazorasp	374	1	16
Tuproqqal‘a	221	2	42
Xonqa	517	2	113
Xiva	322	4	41
Shovot	558	1	23
Yangiariq	313	4	44
Yangibozor	363	1	42
Urganch sh	-	7	19
Xiva sh	-	1	24
Viloyat, jami	**4365**	**35**	**732**

2023 - yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Jami don *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

496 231

Boshoqli don *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

323 226



Bug‘doy *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

316 720



Kartoshka *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

148 074



2023 - yilning yanvar- dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sabzavot *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

653 422

Poliz *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

166 946



Meva va rezavorlar

(tonna)

Jami viloyat bo‘yicha

169 028



Uzum *(tonna)*

Jami viloyat bo‘yicha

49 879



2024- yil 1- yanvar holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar *(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha **968 048**



Shu jumladan, sigirlar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha **366 142**



Qo'ylar va echkilar *(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha
497 183



Otlar *(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha
5 859



Parrandalar *(ming bosh)*

6 977,7



2023 - yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Go‘sht *(ming tonna)*
Jami viloyat
bo‘yicha 184,9



Sut *(ming tonna)*
Jami viloyat
bo‘yicha 1110,9



Tuxum *(mln dona)*
Jami viloyat bo'yicha 480,2





Jun *(tonna)*

Jami viloyat bo'yicha 1235



Asal (tonna)
Jami viloyat bo'yicha 1160,2



Baliq (tonna)
Jami viloyat bo'yicha 30933,5



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

O‘rmon xo‘jaligi – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo‘jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.